

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**TURLI TUPROQ-IQLIM SHAROITIDA QISHLOQ
XO‘JALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISH
VA O‘SIMLIKLARNI HIMOYA QILISHDA
INNOVATSION YONDASHUVLAR**

**mavzusidagi
Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman**

MATERIALLARI

Buxoro, 2023-yil 12-dekabr

BUXORO – 2023

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayev H.A., Tursunov L.T. Tuproqshunoslik asoslari. T-1994y
2. Xoliqulov Sh., Uzoqov.P., Boboxo'jayev I. Tuproqshunoslik. T-2013y
3. Avliyoqulov X.A., Musayeva N.N. „Pedagogik texnologiya” T-2012y
4. Tojiyev U., Namozov X., Nafetdinov Sh., Umarov K „O'zbekiston tuproqlari” T- 2004y
5. Ochilova Muyassar Alisher qizi – ““Tuproq kesmasi” mavzusini o'tishda klasster metodidan foydalanish” Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. 2023-2/3. 114-117 betlar.
6. Ochilova Muyassar Alisher qizi – “Tuproqning morfologik belgilari mavzusini o'tishda klaster metodidan foydalanish” Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. 2023-5/3. 204-207 betlar.
7. Ochilova Muyassar Alisher qizi - APPLICATION OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE TEACHING OF SOIL SCIENCE IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ACTUAL ISSUES OF AGRICULTURAL DEVELOPMENT: PROBLEMS AND SOLUTIONS. JUNE 6-7, 2023. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8004140>. 806-809 betlar.

SUG'ORILADIGAN O'TLOQI TUPROQLARNING UNUMDORLIGI (G'IJDIVON TUMANI MISOLIDA)

Salimova H.X

Buxoro davlat universiteti

***Annotasiya.** Maqolada qishloq xo'jaligida foydalanib kelinayotgan G'ijdivon tumani sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarning unumdorligi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. G'ijdivon tumanining 3 ta xududlaridan tuproq namunalari olinib, mexanik tarkibi, umumiy fizik xossalari aniqlangan. Ularning mexanik tarkibi va umumiy fizik xossalari bir xil ko'rsatkichga egaligi aniqlangan.*

Tayanch so'zlar: Sug'oriladigan o'tloqi tuproq, unumdorlik, oziq moddalar, mexanik tarkib, qishloq xo'jalik ekinlari, hosildorlik.

Kirish. Tuproq unumdorligi bu - tabiatning tarkibiy qismi bo'lib, tuproqning ajralmas o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Tuproq unumdorligi unda yetishtirilayotgan qishloq xo'jalik ekinlarini suv, havo va turli oziq moddalar bilan ta'minlab, natijada yuqori va sifatli hosil olishni ta'minlaydi. Tuproq tirik materiya sifatida quyosh energiyasidan va atrof muhitdagi oziq moddalaridan foydalanadi, ularni murakkab biofizik-kimyoviy jarayonlar natijasida o'zgartiradi va o'simliklarni barcha zarur omillar bilan ta'minlaydi. Shunga ko'ra, tuproq unumdorligi deganda tuproqning qishloq xo'jalik ekinlarining o'sishi va rivojlanishi uchun barcha zarur shart-sharoitlar bilan ta'minlash qobiliyati tushuniladi [2, 52 - b., 3, 92 – b.]

Zamonaviy dehqonchilik tizimida tuproq hosil bo'lish jarayonlari va o'z-o'zini tiklash g'oyasi mavjud bo'lib, asosiy e'tibor texnogen dehqonchilikka qaratildi natijada esa tuproq unumdorligini saqlash va oshirish bilan bog'liq katta muammolarga olib keldi. *Tuproq unumdorligi* tabiiy jarayonlar ta'siri ostida, odam faoliyati ishtirokisiz ham shakllangan. Tuproq unumdorligiga insonlar (antropogen omillar) ning ta'siri salbiy va ijobiy bulishi mumkin. Salbiy ta'siri tuproqlar strukturasi buzilishi, sho'rlanishi, eroziyaga uchrashi, botqoqlanishi, cho'llanishi kabi degradasiya jarayonlarini tezlashtirishi bo'lsa, ijobiy ta'siri maqbul almashlab ekish tizimini joriy qilinishi, organik va mineral o'g'itlarni ilmiy tavsiyalar bo'yicha qo'llanilishi, agrotexnik tadbirlarni to'g'ri va o'z vaqtida olib borishi bilan tuproq unumdorligini saqlab qolishi va oshirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.03.2022 yildagi PQ-179-son “Paxta maydonlarida tuproq unumdorligini va hosildorlikni oshirish, sug'orishning yangi texnologiyalarini joriy etishni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori qabul qilingan bo'lib, qarorda paxta maydonlarida tuproq unumdorligini va hosildorlikni yanada oshirish, sug'orishning yangi texnologiyalariga o'tish, o'simliklar himoyasi bo'yicha xizmatlarni yo'lga qo'yish, zamonaviy laboratoriyalar barpo etish, fermerlarni o'qitish kabi tadbirlarni rag'batlantirishning ta'sirchan mexanizmini joriy etish belgilangan [1]. Hozirgi vaqtda, qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori va sifatli hosil yetitirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish, tuproq unumdorligini saqlash va oshirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Buxoro viloyati G'ijdivon tumani sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarning evolyusiyasi va unga antropogen omillarning ta'sirini o'rganish bo'yicha uzoq yillardan buyon ilmiy izlanishlar olib

borilmoqda. Dala va laboratoriya tadqiqotlari Buxoro viloyati G'ijdivon tumanidagi sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar sharoitida olib borilmoqda. Tumanning 3 ta nuqtasidan tuproq razrezlari kovlanib, qatlamlar bo'yicha namunalar olinib laboratoriyada tahlil qilingan. Tuman tuproqlarining genezisi, evolyusiyasi, mexanik tarkibi, xossa va xususiyatlari, unumdorligi saqlash va oshirish, sho'rlanish tipi va darajasi, tuproqlarning meliorativ xolatini yaxshilash kabi ilmiy - tadqiqot ishlari tuproqshunoslikda umumqabul qilingan standart uslublar asosida olib borilmoqda. Olingan natijalar B.A.Dospexov (1985) bo'yicha matematik, statistik va dispersion tahlil qilingan.

G'ijvuvon tumanining H. Olimjon hududi (Sarmijon) Omad fermer xo'jaligi 576- konturi, Guliston hududi Shukur To'xta fermer xo'jaligi 282-283 konturlari va S.Jabborov hududi Hasan Rajabiy fermer xo'jaligi 648-konturlaridan tuproq namunalari olinib, tuproqning mexanik tarkibi, umumiy fizik xossalari, sho'rlanish tipi va darajasi aniqlandi. Olingan ma'lumotlar tahliliga ko'ra, H. Olimjon hududi (Sarmijon) Omad fermer xo'jaligi 576- konturi o'tloqi tuproqning haydov qatlamida fizik loy miqdori 43,7 % ni tashkil etib, mexanik tarkibi tipi bo'yicha esa o'rta qumoq, shu qatlamning solishtirma massa 2,42 va hajmiy massasi 1,34 g/sm³ ni tashkil etib, kovaqlik 44,6 % bo'lganligi aniqlandi. Shukur To'xta fermer xo'jaligi 282-283 konturlaridan olingan tuproqning mexanik tarkibi haydov (0-32 sm) qatlamida fizik loy miqdori 33,9 % ni tashkil etdi, mexanik tarkibiga ko'ra o'rta qumoq va solishtirma massasi 2,40 va hajmiy massasi 1,29 g/sm³ ni, kovakligi esa 46,3 %. Hasan Rajabiy fermer xo'jaligi 648-konturidan olingan tuproqning mexanik tarkibi haydov (0-38 sm) qatlamida fizik loy miqdori 37,4 % ni tashkil etdi va mexanik tarkibi tipi bo'yicha esa o'rta qumoqni tashkil etgan bo'lib, solishtirma massa 2,41 va hajmiy massasi 1,30 g/sm³ ni tashkil etib, kovaqlik 46,1 % ni tashkil etdi. Demak bu 3 ta hududdagi tuproqlarning mexanik tarkibi, fizik xossalari deyarli bir xil, unumdorligi ham bir xil ekanligi aniqlandi.

Xulosa. Buxoro viloyati G'ijdivon tumani 3 ta hududlari sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarining eng yuqori, ya'ni haydov qatlamining mexanik tarkibi, solishtirma massasi (qattiq qismi zichligi), hajmiy massasi (tuproq zichligi) va kovakligi bir xil ko'rsatkichga ega bo'lib, unumdorligi bo'yicha ham bir xil ekanligi aniqlandi. Tuproq unumdorligini oshirish uchun ilmiy tavsiyalarga rioya etish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-179-son "Paxta maydonlarida tuproq unumdorligini va hosildorlikni oshirish, sug'orishning yangi texnologiyalarini joriy etishni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 25.03.2022 yil.

2. **Artikova H.T., Salimova H.X. Buxoro viloyati sug'oriladigan tuproqlarning meliorativholati va unga ta'sir etuvchi omillar. Xorazm Ma'mun Akademiyasi axborotnomasi – Xorazm, 2021. - №8, - B.52.**

3. **Artikova X. Buxoro vohasi tuproqlarining antropogen omillar ta'sirida o'zgarishi // AGRO ILM (O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali ilmiy ilovasi). - Toshkent, 2017. - №2 (46), - B. 92.**

UDK:631.83:633.11

KUZGI BUG'DOYNING HOSILDORLIGI VA HOSIL SIFATIGA MINERAL O'G'ITLARNING TA'SIRI

O.R.Umarov., Sh.Adizova

Buxoro davlat universiteti

***Annotatsiya.** Maqolada Buxoro viloyati kuchsiz sho'rlangan sug'oriladigan o'tloqi allyuvial tuproqlar sharoitida kuzgi bug'doyning Vassa navi o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi, hamda donning sifat ko'rsatkichlariga mineral o'g'itlarning turli me'yorlarining ta'siri bo'yicha natijalar keltirilgan.*

Buxoro viloyati kuchsiz sho'rlangan sug'oriladigan o'tloqi allyuvial tuproqlar sharoitida N200P100K70 kg qo'llangan variantida kuzgi bug'doyning Vassa navidan yuqori va sifatli hosil olishga erishilgan.

Kalit so'zlar. Kuchsiz sho'rlangan tuproqlar, kuzdi bug'doy, Vassa navi, hosildorlik, sifat ko'rsatkich.

Kirish. Don ishlab chiqarishni ko'paytirishda mineral o'g'itlarni to'g'ri qo'llash muhim omildir. Mineral o'g'itlar kuzgi bug'doy o'sib rivojlanishi uchun muhim hisoblanadi. Masalan, mineral o'g'itlardan kaliy o'simlikda uglevodni sintez bo'lishi, xarakatlanishida muhim rol o'ynaydi, hujayra

Хакимов О.М., Акрамжонов А.А., Эргашев Д.А. ТАРКИБИДА АЗОТ, КАЛЬЦИЙ, МАГНИЙ ВА ФИЗИОЛОГИК ФАОЛ МОДДАЛАР САҚЛАГАН СУЮҚ ЎҒИТ ОЛИШ.....	165
Omonbaeva G.B., Asadullayev S.H. QISHLOQ HO'JALIGIDA ISHLATILADIGAN DEFOLIANTLAR VA ULARNING QO'LLANILISHI.....	167
Mirzaikromov Mirzabobur Alisher o'g'li., Chimberdiyeva Ismigul Sadirali Qizi. MADANIY EKINLARNING TUPROQLARGA NISBATAN TALABLARI, XUSUSIYATLARI.....	169
Omonbaeva G.B. DEFOLIANTLARNING QISHLOQ HO'JALIGIDA QO'LLANILISH SHAROITLARI.....	170
A.A. Dolimov., O.S.Turayev., D. Sh. Erjigitov., F.N. Kushanov. BUG'DOY UNIB CHIQISHI, O'SISHI VA HOSILDORLIGIGA SHO'RLANISH STRESSNING TA'SIR MECHANIZMI.....	172
Ortikova Safiye Saidmambiyevna Oripova Zarnigor Matqulbek qizi. MARKAZIY QIZILQUMNING PAST NAVLI FOSFORITLARIDAN FOYDALANIB OLINGAN O'G'ITLARNING QISHLOQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI.....	174
Турдиев Х.Э., Топволдиев С. ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОРГАНИЧЕСКИХ УДОБРЕНИЙ В ПИТАНИИ ХЛОПКА.....	175
Ibragimov Farhodjon Abduboqi o'g'li. MIKROO'G'ITLAR O'SIMLIKLARGA TA'SIRI HAMDA ULARNI ISHLAB CHIQRISH USULARINI O'RGANISH.....	176
Mirsalimova Saodat Raxmatjonovna, Azimov Azimjon Nurmamatbek o'gli. KALTSIY VA UGLEROD DIOKSIDLARINI PRINSIPIAL OLINISHI.....	179
Xayitov Mamadiyar Allayarovich, Miyzamov Dostonbek Jo`rabek o`g`li., Temirov Rustam Samandar o`g`li. TURLI MINERAL O`G`IT ME`YORLARNING KUZGI BUG`DOY DON HOSILDORLIGI VA SIFATIGA TA`SIRI.....	181
Xayitov Mamadiyar Allayarovich, Miyzamov Dostonbek Jo`rabek o`g`li, Kamolov Javlon Davron o`g`li. TURLI MINERAL O`G`IT ME`YORLARINING TUPROQ OZIQ REJIMIGA TA`SIRI.....	185
Ochilova M.A. Atayeva Z.A. Rahimova M.A. Bo`riyeva D.I. TUPROQSHUNOSLIK FANINI O`QITISHDA INTERFAOL METODLARNING O`RNI.....	188
Salimova H.X. SUG`ORILADIGAN O`TLOQI TUPROQLARNING UNUMDORLIGI (G`IJDIVON TUMANI MISOLIDA).....	192
O.R.Umarov., Sh.Adizova. KUZGI BUG'DOYNING HOSILDORLIGI VA HOSIL SIFATIGA MINERAL O'G'ITLARNING TA'SIRI.....	193
Маъруфжонов Абдурахмон Мўсинжон ўғли. ҒЎЗАНИ СУВ РЕСУРТЕЖОВЧИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР ЁРДАМИДА ТОМЧИЛАТИБ СУҒОРИШ УСУЛЛАРИ.....	195
Масобирова Дилноза Исроил кызы. КОНЦЕНТРИРОВАННЫЕ ФОСФОРНЫЕ КОМПЛЕКСНЫЕ УДОБРЕНИЯ НА ОСНОВЕ МЕСТНОГО СЫРЬЯ.....	198
Mirzaolimov Akmaljon Nabiyevich. YOQILG'I SIFATIDA FOYDALANIB BO'LMAYDIGAN OKSIDLANGAN QO'NG'IR KO'MIRDAN GUMATLI O'G'ITLAR OLISH.....	199
Mirzaolimov Akmaljon Nabiyevich. YOQILG'I SIFATIDA FOYDALANIB BO'LMAYDIGAN OKSIDLANGAN QO'NG'IR KO'MIRDAN GUMATLI O'G'ITLAR OLISH.....	201
Mirzaolimov Akmaljon Nabiyevich, Komilov Suhrobjon Akmaljon o'g'li. MIKROELIMENTLI XELAT O'G'ITLAR OLISH.....	203
Kodirova Dilshodaxon Tulanovna, Azimov Azimjon Nurmamatbek o'g'li. NOORGANIK QO'SHIMCHALAR ASOSIDA AMMIAKLI SELITRA ISHLAB CHIQRISHNI SIFATINI YAXSHILASH.....	205
Eminov Sherzod Olimjonovich. KALTSIY VA MAGNIY KARBONATLARINING TERMİK FOSFOR KISLOTASI BILAN PARCHALANISH JARAYONINI O'RGANISH.....	206
Убайдуллаева Саидахон Бахромжон кызы. ИЗВЛЕЧЕНИЕ И УТИЛИЗАЦИЯ ЦЕННЫХ СОЕДИНЕНИЙ ИЗ СУШЕННЫХ ЛИСТЬЕВ.....	208
Абидова Мамурахон Алишеровна. ВИДЫ ФОСФОРНЫХ УДОБРЕНИЙ И ИХ ПОЛУЧЕНИЯ..	210
Ахмедов Бахриддин Мадаминвич, Алишеров Шохрухбек. СУҒОРИЛАДИГАН ТУПРОҚЛАРИНИНГ УНУМДОРЛИГИ ВА УНИ НОАНЪАНАВИЙ ЎҒИТЛАР ҚЎЛЛАШ ОРҚАЛИ ОШИРИШ.....	212
И. Г. Мамиров, Б. Х. Кучаров. ИЗУЧЕНИЕ РАСТВОРИМОСТИ В СИСТЕМЕ МОНОКАРБАМИДХЛОРАТ НАТРИЯ – РОДАНИД ТРИЭТАНОЛАММОНИЯ- ВОДА.....	214
Убайдуллаев Мадаминжон Мўминжонович, Вахтийорова О'g'iloй Anvarjon qizi. ФАРФОНАНИНГ ЎТЛОҚИ СОЗ ТУПРОҚЛАРИ ШАРОИТИДА ХОРИЖИЙ ВА МАҲАЛЛИЙ ДЕФОЛИАНТЛАРИНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ АНИҚЛАШ.....	216